

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA SHAXSGA
YO'NALTIRILGAN O'QUV TARBIYA JARAYONINI
TASHKILLASHTIRISH METODIKASI**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika Instituti
Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
3 bosqich talabasi Musurmonqulova Yaxshigul*

Annotasiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida shaxsga yo'naltilgan o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning nazariy asoslari va amaliy yo'llari yoritiladi. Unda bolalarning yosh xususiyatlari, individualligi, qiziqishi va rivojlanish sur'atini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini loyihalash tamoyillari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, pedagogning shaxsga yo'naltilgan yondashuvdagi roli, rivojlantiruvchi muhitni shakllantirish, interfaol metodlar, kuzatish va baholash usullari, o'yin va tajriba faoliyatini tashkil etishning samarali shakllari tahlil qilinadi. Maqolada maktabgacha ta'limda individual ta'lim trayektoriyalaridan foydalanishning afzalliklari va natijalari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar. *shaxsga yo'naltilgan ta'lim, harakat strategiyasi, madaniy muhit, avtoritar, ta'lim strategiyasi, ta'lim konsepsiyasi.*

**МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ЛИЧНОСТНО
ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В
ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ.**

Аннотация. *В данной статье раскрываются теоретические основы и практические подходы к организации личностно-ориентированного учебно-воспитательного процесса в дошкольных образовательных учреждениях. Рассматриваются принципы проектирования образовательной деятельности с учетом возрастных особенностей, индивидуальности,*

интересов и темпов развития детей. Подробно анализируются роль педагога в реализации личностно-ориентированного подхода, создание развивающей среды, применение интерактивных методов, наблюдение и оценивание, организация игровой и опытно-экспериментальной деятельности. В статье также обоснованы преимущества и результаты использования индивидуальных образовательных траекторий в дошкольном образовании с научно-педагогической точки зрения.

Ключевые слова: *личностно-ориентированное образование, стратегия действия, культурная среда, авторитарная, образовательная стратегия, образовательная концепция.*

METHODOLOGY FOR ORGANIZING THE PERSONALLY-ORIENTED EDUCATIONAL PROCESS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS.

Annotation. *This article examines the theoretical foundations and practical approaches to organizing a child-centered educational process in preschool institutions. It highlights principles of designing educational activities based on children's age characteristics, individuality, interests, and developmental pace. The role of the educator in implementing a personalized approach, creating a supportive learning environment, applying interactive methods, observing and assessing children, and organizing play- and experience-based activities is thoroughly analyzed. The article also discusses the advantages and outcomes of using individual learning trajectories in preschool education from a scientific and pedagogical perspective.*

Keywords: *person-centered education, action strategy, cultural environment, authoritarian, educational strategy, educational concept.*

Kirish. *Mutaxassislarning ta'kidlashicha, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ijtimoiy pedagogik ishning shunday shakllarini vujudga keltirishi kerakki, bunda har bir bola o'z imkoniyalarini namoyon qila olishi uchun qulaylik yarata olishi, madaniy muhitni to'raligicha o'zlashtirishi va o'zining barcha quvvatlarini ro'yobga*

chiqarishi lozim. Bugungi kunga kelib bola shaxsiga rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim yangicha mazmun bilan boyimoqda. Buning natijasida bolaning ehtiyojlari insoniy munosabatlar ob'yekti sifatida faollashmoqda. Bu o'zaro kelishuv, bir-birini tushunish, hamkorlik hamda qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslanishi kerak. Shu munosabat bilan biz shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ob'yektiv, sub'yektiv munosabatlar yig'indisini har bir insonga xos bo'lgan mustaqil qadriyatlar sifatida aniqlashga intilamiz. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni umumiy rivojlantirish masalalari quyidagilarda aks etadi: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish orqali bolalarni umumiy rivojlantirishning nazariy asoslarini tadqiq etish va ularning umumiy xususiyatlari bilan bog'liq holda pedagogik yordam ko'rsatishning mavjud darajasi va shart-sharoitlariga tayanish; bugungi kunda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasiga tayanilgan holda maktabgacha ta'lim-tarbiyani jarayonini tashkil etish, bu jarayonda bolalarning sub'yekt sifatida namoyon bo'lishlarini ta'minlash, ularni har tomonlama rivojlantirishga erishish, umumiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ustuvor maqsadga aylantirish; maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanadigan bolalar birinchi navbatda tarbiyachining pedagogik qo'llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezishlarini hisobga olish; bolalarni pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali ularni umumiy rivojlantirish jarayonining mazmunini bolaning qiziqishlari, intilishlari va ehtiyojlariga mos tarzda tanlash va amalga oshirish. Bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim – tarbiyalanuvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Mashg'ulotlar jarayonida pedagogik texnologiyalar talablari asosida o'quv maqsadlariga erishiladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashgan davrda ta'lim samaradorligi, asosan tarbiyalanuvchining o'qitish, tarbiyalash jarayonidagi o'rni, tarbiyachining unga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarda bola pedagogik jarayon markaziga qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bunda butun ta'lim tizimi, shu jumladan, o'qitish shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi

lozim. Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo'ladi: pedagogik jarayonda shaxs ob'yekt emas, sub'yekt hisoblanadi; har bir bola qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod egasi hisoblanadi; yuqori yetuk qadriyatlar (sahiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustuvor xislatlari hisoblanadi. Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi: bola va tarbiyachining huquqlarini tenglashtirish; bolaning erkin tanlab olish huquqi; xatoga yo'l qo'yish huquqi; o'z nuqtai nazariga ega bo'lish huquqi; tarbiyachi va tarbiyalanuvchi munosabatining asosi: ta'qiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontrish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish. Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g'ayri insoniy hisoblanadigan majburlash pedagogikasidan voz kechishdir. Muammo bu yondashuvni mutlaqlashtirishda emas, balki uning oqilona mezonlarini aniqlashdadir. Umuman olganda tarbiya jarayonida majburlashdan voz kechish mumkin emas, ammo jazolash insonni kamsitadi, ezadi, rivojlanishini susaytiradi, unda so'zsiz itoatkorlik xususiyatlarini shakllantiradi. Erkin o'qitish quyidagilar bilan belgilanadi: har bir ta'lim oluvchi qiyofasida noyob shaxsni ko'rish, uni hurmat qilish, tushunish, qilish, unga ishonish. Tarbiyachida barcha ta'lim oluvchilar iste'dodli degan ishonch bo'lishi kerak; Ta'lim-tarbiya jarayonida har bir bolani shaxs sifatida tan olish, uning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hozirgi kunning talabi hisoblanadi. "Bolalarning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan rivojlanish muhiti mustaqillikning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Agar bola o'z qiziqishlarini, ehtiyojlarini bermalol anglasa, o'z xohish-irodasini namoyon qilsa, uning faoliyati kuchli motivatsiyaga ega bo'ladi. Maktabgacha ta'lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinish jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etiladi. Maktabgacha davr – bu bolada motivatsiya, o'z-o'zini namoyon etish, barpo qilish, nimanidir bajarish xohish-istagi, intilishi rivojlanadigan davrdir. Ushbu davrda bola shaxs sifatida

rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Ta'lim strategiyasi maktabgacha ta'limning yuqori sifatini kafolatlashi kerak. Aynan maktabgacha davrda bolaning kelajakdagi barcha faoliyat turlarida va umuman hayotda muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beruvchi umuminsoniy xislatlari shakllanadi. Bularning barchasi bolaning shaxsiy faolligi orqali rasm chizish, qurishyasash, musiqa va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi. Yoshi bo'yicha "kichik inson" shaxs sifatida rivojlanadigan bir qancha faoliyat turlari o'yin tariqasida olib boriladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'zining asosiy vazifasi etib har bir bola shaxsini maksimal rivojlantirish va uning keyingi rivojlanish bosqichiga tayyorgarligini ta'minlash maqsadida muassasada ijobiy psixologik mikroklimat va sharoit yaratishni belgilaydi. Ota-onalar va tarbiyachilardan talab qilinadigan narsa esa katta sabr, mehr va bola tarbiyasiga ilmiy asoslangan yagona yondashuvdir. To'g'ri yo'sinda olib borilgan tarbiya natijasida bola mustaqil fikr yuritishga va katta hayotga dadil qadam qo'yishga tayyor bo'ladi.

Xulosa qilganda bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limga asoslanib ishlayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar an'anaviy dastur bo'yicha tarbiyalanayotgan bolalarga nisbatan ancha qobiliyatli bo'ladilar. Chunki bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limda bolaga yaxlit shaxs sifatida qaraladi, unda tana, aql, hissiyot va ijodkorlik mujassamdir, shu bilan birga shaxsiy tarixi va ijtimoiy kelib chiqishi inobatga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017.
2. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Darslik "Tafakkur" –T.: 2019.
3. "6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o'rganish". Metodik qo'llanma. K.Nizomova, T.: 2006.
4. "Bolangiz maktabga tayyormi?" metodik qo'llanma. T:, 2001.

5. Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari T.: 2015 y. UzPFITI. Uslubiy qo'llanma.

6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, T.: 1993. – 84-bet.

7. Haydarova Shahlo Narzullayevna. Mehribonlik uyi bolalarinining ijtimoiy hayotga moslashuv omillari. "UZACADEMIA"SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. 30-dekabr, 2020-yil. 3-qism. 163-165.

8. Хайдарова Шахло Нарзуллаевна. Мехрибонлик уйи тарбияланувчиларини оилавий ҳаётга тайёрлашнинг педагогик асослари.«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. VOLUME #1, ISSUE #1, 2020/XI. 149-154.

9. Xaydarova Shaxlo Narzullaevna, (2021). Pedagogical Approach To The Preparation The Children Of The Orphanage For Family Life. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(02), 23-27.

10.Хайдарова Ш.Н. ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПОДГОТОВКЕ ВОСПИТАННИКОВ ДЕТСКОГО ДОМА К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ. Colloquium-journal №8 (95), 2021. Czesc 2. (Warszawa, Polska)